



Science technology & Digital finance

journal homepage: <https://supportresult.uz/index.php/stdf>

COVERAGE OF ETHICS ISSUES IN WORKS ON ETIQUETTE

¹Spanov Meiirkhan, ²Tolibboyev Dilshod¹M. Auezov South Kazakhstan University, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor.²Senior lecturer of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ МОРАЛИ В РАБОТАХ ПО МОРАЛИ

¹Спанов Мейрхан, ²Толлибоев Дилшод¹Южно-Казахстанский университет имени М. Ауэзова, кандидат философских наук, доцент.²Старший преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

ODOB-AXLOQGA OID ASARLARDA AXLOQ MASALALARINING YORITILISHI

¹Spanov Meyrxon, ²Tolibboyev Dilshod¹M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.²O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali katta o'qituvchisi.

abstract

This article provides information on the statement of morality, norms of morality in artistic-didactic works that are common among the people.

me'yorlarining bayon etilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Keywords:

morality, decency, norm, artistic-didactic works.

аннотация

В этой статье приводятся сведения о изложении нравов, норм морали в художественно-дидактических произведениях, распространенных в народе.

Ключевые слова:

мораль, этикет, норма, художественно-дидактические произведения.

annotatsiya

Ushbu maqolada xalq orasida keng tarqalgan badiiy-didaktik asarlardagi axloqning, axloq

Kalit so'zlar:

axloq, odo, me'yor, badiiy-didaktik asarlar.

© 2023 Spanov Meiirkhan, Tolibboyev Dilshod.

O'rta asrlar musulmon Sharq mintaqasi axloqiy tafakkuri rivojida axloqning mohiyatini tushuntiruvchi va axloqiylikni targ'ib etuvchi mashhur pandnomalar – xalq ichida keng tarqalgan badiiy-didaktik asarlar o'ziga xos o'rin egallagan. Ular uchun umumiy bo'lgan xususiyat, bu – axloqiy me'yorlarni, tamoyillarni, axloqiy madaniyat omillarini ko'pchilikka tushunarli, rang-barang shakllar orqali yetkazishdir. Mazkur axloqiy hodisalarni uzviylikda va nisbiylikda o'rganuvchi fan axloqshunoslik deb nomlanadi. Bu bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan bo'lib, bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnoma" singari nomlar bilan atab kelingan. Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy

munosabatlarini o'rganadi. Axloq arabcha "xulq" so'zining ko'pligi bo'lib, kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisidir. "Axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyekti anglatilsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Ma'lumki, islomda diniy-ma'rifiy, ilmiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayot, qonun-qoidalar me'yorlari Qur'oni karim va hadislar bilan tartibga solib boriladi. Hadislarda islom diniga mansub qoida va talablar hamda axloq-odobga doir o'gitlar, yuksak insoniy fazilatlar bayon etilgan.

Islom olamida mashhur va eng ishonchli deb e'tirof etilgan oltita hadis to'plamlari mualliflarining aksariyati O'rta Osiyolik allomalardir. Mazkur ishonchli hadis to'plamlarida axloq masalalari alohida "Adab" bobida bayon etilgan.

Islom ulamolari ichida birinchilardan bo'lib Imom Buxoriy faqat odob-axloq masalalariga oid hadislarni jamlab, "Al-adab al-mufrad" nomli kitob tasnif qilgan. Mazkur asarda adabga oid 1322 ta hadis keltirilgan bo'lib, o'z navbatida ular 644 ta bobga ajratilgandir. Asarning ba'zi joylarida Qur'oni karim oyatlari va sahobalarning asarlari keltirilgan, kitob ko'p asrlar davomida islomiy odob va axloqlarni keng targ'ib qilgan asar bo'lib kelgan.

O'rta asrlarning qomusiy allomalari Ibn Sino, Farobiy, Zamaxshariy, Beruniylar axloq ilmining nazariy-amaliy sohalarida faoliyat ko'rsatganlar. Farobiy falsafani ikkiga – nazariy va amaliy falsafaga bo'ladi, olim axloqshunoslik masalalarini amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy muammolar uning "Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob", "Baxtga erishuv haqida", "Davlat arbobining hikmatlari", "Fozil odamlar shahri" singari asarlarida ko'tarilgan. Ularda inson baxti eng asosiy muammo sifatida o'rta tashlangan. Shuningdek, Farobiy hayot va mamot muammosiga ham batafsil to'xtalgan. Uning fikricha, inson hayotda go'zal amallar qilishi uchun yetuk xulqli bo'lishi lozim. Xulqning yaxshiligi, yetukligi esa insonning xatti-harakatlarida me'yorga amal qilingani bilan belgilanadi. Odobni esa mutafakkir badavlatning davlatini bezaydigan va kambag'alning kambag'alligini o'g'iraydigan axloqiy hodisa sifatida ta'riflaydi [1, 32-b]. Zero, axloq ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlarini aks ettiradi hamda qabul qilingan ommaviy namuna, odat, rasm-taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalandix. [2, 41]

Axloq-odob masalalarini Farobiy insonning intellektual sifatlari – "aqliligi", "donoligi" bilan uzviy bog'lik holda olib qaraydi. U talqin etgan axloqiy tushunchalar,

kategoriyalar faqat kishilarning o‘zaro munosabatlarida mavjud bo‘lgan xulq normalarining ifodasigina emas, balki ular faoliyatining natijasi hamdir.

Insoniyat ma’naviy madaniyatiga katta hissa qo‘shgan O‘rta osiyolik allomalardan yana biri Abu Ali ibn Sinodir. Falsafada Farobiy an‘analarini davom ettirgan Ibn Sino ijtimoiy fanning zarurligini o‘zining “Donishnoma” asarida shunday bayon etadi: “Har bir ilm ichida uni o‘rganadigan bir narsa bo‘ladi. Bu narsalar ikki turga bo‘linadi: biri borligi bizning harakatimizga bog‘liq bo‘lgan narsalar va ikkinchisi, mavjudligi bizning harakatimizga bog‘liq bo‘lmagan narsalar. Avvalgisiga bizning qilmishlarimiz misol bo‘lsa, ikkinchisiga yer osmon, hayvon va o‘simliklar misol bo‘ladi.” Ibn Sino axloq ilmining amaliy falsafa tarkibidagi o‘rnini aniqlab olishga intiladi, uning fikricha, falsafa amaliy va nazariy qismlarga bo‘linar ekan, amaliy falsafani axloqshunoslik bilan bir deb bo‘lmaydi. Shuning uchun uni axloq ilmi degan ma’qul. [1, 35]

Alloma tasavvuf falsafasi va tasavvufiy axloqshunoslikka doir ko‘plab asarlar yaratgan. Bu borada uning mashhur “Ishq risolasi” diqqatga sazovordir. Mazkur risoladagi asosiy muammo – komil inson masalasi hisoblanadi. Naqshbandiya tariqatining vujudga kelishida “Ishq risolasi” nazariy asos hamda tasavvuf falsafasi va axloqshunosligiga ilk nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Ma’lumki, shariat islomning tashqi – huquqiy ko‘rinishi bo‘lsa, tariqat uning ichki – axloqiy ko‘rinishi hisoblanadi. Zero, tasavvuf islomiy axloqshunoslik falsafasi sifatida ish ko‘radi.

Tasavvuf axloqshunosligida Abu Homid G‘azzoliyning o‘rni beqiyos, uning axloqiy qarashlari “Ihyo ulum ad-din” asarida o‘z aksini topgan. Unda tavakkul, ixtiyor erkinligi, taqdir, niyat, muhabbat singari masalalar tahlil qilinadi. [3, 231].

Temuriylar davri axloqshunosligida Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505) o‘rni alohida diqqatga sazovor. Mutafakkir-ilohiyotchi olim va adib, buyuk axloq muallimining “Futuvvatnomai sultoni” va “Axloqi muhsiniy” asarlari XV asrda yaratilgan pandnoma janridagi qimmatli manbalardandir.

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoni” nomli risolasi javonmardlik ilmining aksariyati qoida-nizomlarini qamrab olgani, sodda va ravon tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Asarda javonmardlik ilmi, dasturi va qoida-talablari bilan birga tasavvuf haqida ham ko‘plab fikrlar mavjud. Futuvvat ham, tasavvuf ham inson axloqini poklash, mehru shafqat, himmat va mardlik ko‘rsatishni targ‘ib etadi. Shunday ekan, tasavvuf futuvvatda yuksak g‘oyalarning amaliy-ijtimoiy tatbiqini ko‘rgan bo‘lsa, futuvvat tasavvufda nazariy-e’tiqodiy tagzaminni topgan [4, 11].

Husayn Voiz Koshifiyning yana bir mashhur asari “Axloqi muhsiniy” Sulton Husayn Mirzoning o‘g‘li, temuriy shahzoda, Marv hukmdori Abdumuhsin Mirzoga

(1472-1507/08) bag‘ishlangan. Binobarin, kitobning nomi asl mazmuni (“Yaxshi xulqlar”) dan tashqari “Muhsiniyning axloqi” ma’nosini ham anglatadi. Mazkur asar 40 bobdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich boblarda ibodat, duo, ixlos va boshqa tushuncha, atamalar bayoni, keyingilarda esa podshoh va yuksak martabali davlat arboblarning vazifalari, axloq-odobi, mulozimlari bilan munosabati tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yoritilgan. Ma’lumotlar bayonida avval axloqqa oid biror so‘z va tushunchani izohlab, keyin unga o‘quvchi amal qilishi uchun naqliy va aqliy dalillar keltirilgan.

“Muhsiniyning axloqi”dagi tarixiy qissalar qamrovi davr jihatidan juda katta. Ularda qadimgi yunon donishmandlari, islomgacha bo‘lgan Eron, turk hukmdorlari, arab xalifalari va boshqalarning ibratli so‘zlari va ishlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Ammo ularni ayni tarixiy voqea deb tan olish qiyin. No‘shirvon huzurida uch hukmron: Rum qaysari, Xitoy xoqoni, Hindiston ro‘yisining bir vaqtda bo‘lishi qissa ijodkorining hayoliy mahsuli deb bilish mumkin. O‘rta asr sharoitida mashhur tarixiy shaxslar nomlari keltirilishi kitobxon uchun oddiy bir hol deb baholash mumkin.

“Axloqi muhsiniy” asari XV asrda yaratilgan axloqqa oid ham ilmiy, ham badiiy xususiyatga ega kitobdir. Shuning uchun tuzuvchi unga ko‘plab she’riy namuna, ibratli qissa va rivoyatlarni kiritgan. [5,123]. Yuqorida aytib o‘tilganidek, asar shahzodaga bag‘ishlab yozilganligi tufayli ham unda keltirilgan axloqiy sifatlar ko‘rsatma sifatida emas, balki turli davrlarda yashagan hukmdorlarning hayotlaridan rivoyatlar bilan bayon etilgan. Asarning yozilish uslubi aynan shu jihatlari bilan ham boshqa axloq-odob kitoblaridan ajralib turadi.

“Futuvvatnomai sultoni” va “Axloqi muhsiniy” asarlari besh yuz yil davomida axloq va odob dasturi sifatida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, katta qiziqish bilan o‘qilgan. [5, 7].

Temuriylar davri axloqshunosligining yana bir vakili Jaloliddin Davoniydir (1427-1502). Uning axloqshunoslik muammolariga bag‘ishlangan yirik asari “Axloqi Jaloliy”da XV asrning ilg‘or axloqi, Sharq axloqiy ta’limotlarining yutuq va kamchiliklari aks etgan. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi asosiy axloqiy tushunchalar hisoblanuvchi adolat, shijoat, donishmandlik, iffat singari fazilatlar tahlili va talqiniga, ikkinchi qismi oilaviy hayot, bolalar tarbiyasi, muomala odobi masalalariga bag‘ishlangan. Kitobning uchinchi qismida esa shahar madaniyati va podshohlarning siyosat yurgizishi haqida fikr yuritiladi. Asarda axloqshunoslik kishilarning amaliy faoliyati, qarashlari bilan bog‘liq fan sifatida, axloqiy muammolar esa falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarga daxldor hodisalar tarzda olib qaralgan. Zero, ijtimoiy hayotning turli sohalarda axloqning o‘ziga xos norma-qoidalari ifodalanadi. Bu axloq qoida-normalari mustaqil asosga ega bo‘lgan mustaqil sohalarni tashkil etadi.

XIX asrda Turkiston xalqlari orasida katta shuhrat qozongan va ilm ahli orasida qadrlanib, keng istifoda etilgan odob-axloqqa oid asarlardan yana biri “Odob as-solihin”dir. Mazkur asar, shu davr axloqiy tafakkurida (axloqshunosligida) chuqur iz qoldirgan yirik faylasuf, tarixchi, adib va tarjimon Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy qalamiga mansub.

“Odob as-solihin” sodda va ravon tilda yozilganligi sababli Xiva xoni Muhammad Rahimxonning amriga muvofiq kotiblar tomonidan ko‘chirilib, Xiva madrasalarida ta’lim jarayonida keng istifoda etilgan. [6, 6]. Asar muqaddima, yetti bob va kichik xotimadan iborat. Har bir bob esa to‘rt fasldan tashkil topgan bo‘lib, har bir bobga bayon etilayotgan odoblarga muvofiq nom berilgan. Bular jumlasiga “Izn so‘rash, ko‘rishish va salomlashish odoblari”, “Uxlamoq, yo‘l yurmoq va otga minmoq odoblari”, “Ahli suhbatning odoblari”, “Ziyofat, yemak va ichmak odoblari” va boshqalar kiradi. Fasllarga ham nom berilgan bo‘lib, har bir fasl bir necha qoidalardan tashkil topgan.

“Odob as-solihin”da odob-axloq qoidalarini bayon etishda tartib sondan foydalangan holda ketma-ket qilinishi lozim bo‘lgan ishlar berilgan. Ba’zi o‘rinlarda esa fikrni (qoidani) quvvatlash uchun hadislardan misollar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda asarda juda ko‘p duo va hamdlar keltirilgan bo‘lib, ayrim duolar Qur‘on oyatlari orqali ifodalangan. O‘quvchiga eslab qolish oson bo‘lishi uchun qoidalar juda sodda jumlar bilan keltirilgan hamda e’tiborni boshqa narsaga jalb qilmaslik maqsadida ibratli hikoyat va rivoyatlardan, she’riy misralardan, aqliy dalillardan foydalanilmagan. Kitobni o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilganligi sababli qoidalar qisqa va lo‘nda ifodalangandir.

Asrlar osha pandnoma janrida yaratilgan asarlarning tarkibiy o‘zgarishiga nazar solinar ekan, ma’lum bo‘ladiki, insonning kundalik ehtiyojlari uchun zaruriy hisoblangan axloq-odob qoidalari dastavval hadis to‘plamlarida, so‘ngra esa ma’lum bir asarlarda naqliy va aqliy dalillar bilan keng yoritilgan bo‘lsa, aholi o‘rtasida naqliy dalillarning yod bo‘lib, kundalik amaliyotga aylanishi, endilikda asarlarda qisqa faqat odob qoidalarining o‘zigagina taalluqli asarlarning yaratilish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mintaqada tasavvuf va tariqat vakillarining keng tarqalganligi sababli mazkur janrdagi adabiyotlarda ham tasavvufiy axloq-odob qoidalari bayon etilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yunusov A. Farzand tarbiyasi, axloq va oila munosabatlari. – T.: Movarounnahr, 2002.
2. Falsafa: Qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004.
3. Abu Homid Muhammad ibn al-G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din.– T.: Movarounnahr, 2003. T. 1.
4. G‘azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat: (Ruh haqiqati) / Nashrga tayyorlovchilar: M.M.Andijoniy, A.U.Toshkandiy. – T.: Adolat, 2005.

5. Koshifiy, Husain Voiz. Futuvatnomai sultoni; Axloqi muhsiniy / Nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
6. Kutlukov M. Muhammad Sodiq Koshg‘ariy. – T.: O‘zbekiston, 1968
7. Tolliboyev D., Burkhanova M. TECHNOLOGIZED INFORMATION SPACE OF MODERN SOCIETY. *Science technology&Digital Finance*, 1 (3), 48-52. – 2023.
8. Tolliboyev D. MAMLAKATIMIZDA YOSH OTA-ONALANING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI //Social science and innovation. – 2023.
9. Tolliboyev, D., & Dilnura, A. (2023). DIGITALIZATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM: QUANTIFIABILITY VS QUALITATIVENESS. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 58-63. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/tdadd>
10. Tolliboyev, D., & Burkhanova, M. (2023). TECHNOLOGIZED INFORMATION SPACE OF MODERN SOCIETY. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 48-52. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/tdbm>
11. Spanov M., Kamolov D. MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (4), 168-172. – 2023.
12. Dilshod, T., & Aziza, X. (2023). RAQALMI IQTISODIYOT DAVRIDA TALABALARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI. *Science Technology & Digital Finance*, 1(3), 53–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10050980>
13. Tolliboyev, D., & Ergasheva, C. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF SPIRITUALITY IN BUILDING THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 68-72. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/tdech>
14. Норбеков Х. РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ В МИРЕ И В ОТДЕЛЬНЫХ РЕГИОНАХ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 141-144.
15. Kamolov, D., & Qilicheva, R. (2023). SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 314-320. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/grkd>
16. Tolliboyev, D., & Norboeva, K. (2023). SCIENCE AND EDUCATION AND DIGITAL ECONOMY. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 64-67. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/tdnkh>
17. Sirlibekov K. EVENT TOURISM CENTERS OF SPAIN //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 161-167.
18. Tolliboev, D. (2023). THE USE OF CREATIVE TEACHING METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 33-37. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/tdmm>
19. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 128-133.
20. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
21. Norbekov X. Формирование конкурентных преимуществ АО «Тандер» //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
22. Соловарова М. А. ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕТИ ОТЕЛЕЙ MARRIOTT //Казанский вестник молодых учёных. – 2022. – Т. 6. – №. 3. – С. 98-103.
23. Sirlibekov K. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CULTURAL TOURISM IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (3), 123-131. – 2023.
24. Сирлибеков Х. Ш. Факторы и особенности реализации концепции оздоровительного туризма (СПА-туризма) в современной России //Казанский вестник молодых учёных. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 98-103.